

RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA ALIMENT MAJBURIYATLARI

Teshayeva Zuhra Sherbek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti,

Email: zuhrateshayeva2002@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada rivojlangan xorijiy mamlakatlar, jumladan Fransiya Germaniya, Ukraina va boshqa mamlakatlarda aliment majburiyatlari huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek ushbu mamlakatlarda aliment to'lash yuzasidan erishgan yutuqlarini mamlakatimiz qonunchiligiga qo'llash yuzasidan xulosa hamda takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: aliment majburiyatlari, aliment miqdori, da'vo, sud, aliment oluvchi, aliment to'lovchi.

Аннотация: В статье юридически проанализированы алиментные обязательства развитых зарубежных стран, в том числе Франции, Германии, Украины и других. Также были даны заключения и предложения по применению к законодательству страны достижений по выплате алиментов в этих странах.

Ключевые слова: алиментные обязательства, сумма алиментов, иск, суд, получатель алиментов, плательщик алиментов.

Annotation: The article provides a legal analysis of alimony obligations in developed foreign countries, including France Germany, Ukraine and other countries. Also in these countries, conclusions and proposals were made on the application of the achievements of alimony payments to the legislation of our country.

Key words: alimony obligations, amount of alimony, claim, Court, alimony recipient, alimony payer.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasiga asosan ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetgunicha boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi uchun, sog'lom to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majbur hisoblanadirlar [1]. Shuningdek, davlat va jamiyat yetim bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlashi ham keltirib o'tilgan.

Aliment majburiyatlari tushunchasiga turli olimlar turlicha ta'riflar keltirib o'tganlar. O'zbek huquqshunosi R.X.Xalilov aliment majburiyatini "qonunda ko'zda tutilgan shaxslar o'rtasidagi moddiy qo'llab-quvvatlash majburiyati" deb ta'riflaydi. Olimning fikricha, bu majburiyat oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini ta'minlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Fransuz huquqshunosi R.David "Yevropada oila huquqi" ilmiy- o'quv qo'llanmada aliment majburiyatini "davlat tomonidan oilaviy

birdamlikni rag'batlantirish vositasi" deb ta'riflaydi. Rus huquqshunosi A.M.Nechayeva alimentni "ijobiy huquqiy majburiyat" deb ta'riflaydi. Ya'ni aliment faqat sud qarori bilan emas, balki shaxslarning o'z ixtiyori bilan ham bajarilishi mumkin[2].

Xorijiy mamlakatlarda ham aliment majburiyatlari o'zining milliy qonunchiligida aks ettirilgan. Xususan Moldova Respublikasi Oila kodeksining 82-moddasida turmush o'rtoqlarning o'zaro ta'minot majburiyati belgilab o'tilgan. Turmush o'rtoqlar bir-birlarini moddiy qo'llab-quvvatlashi shart hisoblanadi. Bunday qo'llab-quvvatlash rad etilgan taqdirda taraflar o'rtasida aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv bo'lmaganda aliment to'lash to'g'risidagi da'vo bilan sud instansiyasiga quyidagilar murojaat qilish huquqiga ega:

1) moddiy yordamga muhtoj bo'lgan mehnatga layoqatsiz turmush o'rtoq (pensiya yoshiga yetgan yoki o'ta og'ir, og'ir yoxud o'rtacha darajada imkoniyati cheklanganlar);

2) xotin homiladorlik davrida;

3) o'rtadagi farzand dunyoga kelganidan keyin uch yoshga to'lgunga qadar parvarishlayotgan turmush o'rtoq;

4) o'n sakkiz yoshga to'lgunga imkoniyati cheklangan bolani yoki bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandni parvarishlayotgan turmush o'rtoq, agarda u shaxsiy ish joyiga ega bo'lmasa hamda bolani parvarishlash zarur bo'lgan hollarda.

Aliment faqatgina yuqorida ko'rsatilgan holatlarda aliment oluvchi yetarli darajada shaxsiy mablag'larga ega bo'lmagan-da, aliment to'lashi shart bo'lgan turmush o'rtoq esa yetarli mablag'larga ega bo'lgandagina to'lanadi[3]. Moldova Respublikasida er-xotinlar o'rtasidagi moddiy ta'minotini undirish masalasida ikkala tomonning ham huquq va manfaatlari bir xil himoya ostiga olingan. Yetarli moddiy mablag'ga ega bo'lgan turmush o'rtoq, zarur mablag'larga muhtoj bo'lgan er yoki xotinni moddiy ta'minlab, uni qo'llab-quvvatlashi mantiqan qaralganda adolatli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining **117-moddasida** ham xuddi shunday qoida nazarda tutilgan bo'lib, unda «yordamga muhtoj er yoki xotin yordam berishga qodir bo'lgan xotin yoxud erdan» degan jumla bilan yoritib o'tilgan [4]. Biroq bu qoidada «**qodir bo'lgan**» tushunchasi yanada aniqroq va oydinroq ochib berilmagan. Bu esa sudlarga qaysi holatlarda er yoki xotin moddiy ta'minot berishga qodirligi masalasini hal etishda qiyinchiliklar tugdirmoqda. Shu nuqtayi nazarga asoslangan holda Oila kodeksining 117-moddasiga qo'shimcha ravishda yordam berishga qodir bo'lish tushunchasiga aynan qanday holatlar kirishi keltirib o'tilishi maqsadga muvofiq. **Oila kodeksining 119-moddasida** er yoki xotin biri biriga sud tartibida aliment to'lash tartibi keltirib o'tilgan. Unga ko'ra taraflar o'rtasida aliment to'lash to'g'risida kelishuv mavjud bo'lmagan taqdirda sud tartibida undirilishi mumkin.

Bugungi kunda sudlar tomonidan undirilayotgan kam miqdordagi alimentlar hozirgi zamonda odatiy hayot kechirish uchun yetarli emas. Mehnatga layoqatsiz er yoki xotin bolasi uch yoshga to'lgunga qadar ajratilgan eng kam oylik ish haqining 26,5 foizi miqdoridagi pul, bugungi kunda 306 075 so'mni tashkil etadi, farzand uchun yetarli hisoblanmaydi.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan xorijiy mamlakatlar qonunchiligida **kun kechirish uchun zarur bo'lgan to'lovning eng kam miqdori** tushunchasi mavjud bo'lib, har bir mamlakatda kun kechirish uchun zarur bo'lgan to'lovning eng kam miqdori uning iqtisodiy ko'rsatkichlari, iste'mol mahsulotlarining narxi hamda milliy valyutaning barqarorligidan kelib chiqib belgilanadi. Kun kechirish uchun zarur bo'lgan to'lovning eng kam miqdori deganda insonga u yoki bu mamlakatda yashash uchun zarur bo'lgan ma'lum bir pul miqdori tushuniladi. Kun kechirish uchun zarur bo'lgan to'lovning eng kam miqdori butun mamlakat bo'yicha, shuningdek, alohida tuman yoki viloyatlar miqyosida belgilanishi mumkin. Kun kechirish uchun zarur bo'lgan to'lovning eng kam miqdori mamlakatda insonning yaxshi turmush tarzi uchun kerak bo'lgan mahsulot hamda xizmatlarning iste'mol savatchasini aniqlab beradi.

Avstraliyada kun kechirish uchun zarur bo'lgan to'lovning eng kam miqdori 600 avstraliya dollariga teng. Bu so'mda 4 938 000 ni tashkil etadi. Kun kechirish uchun zarur bo'lgan to'lovning eng kam miqdori Lyuksemburgda 2000 yevro (bugungi kurs bilan taxminan 29.5–29.6 million so'm)ni, Germaniyada 1240 yevro (18 295 200 so'm)ni, Finlyandiyada 1170 yevro (17 263 350 so'm)ni, Buyuk Britaniyada 1087 yevro (16 055 216 so'm)ni, Gollandiyada 1080 yevro (15 660 160 so'm)ni, Fransiyada 1030 yevro (14 977 430 so'm)ni, Belgiyada 1030 yevro (14 977 430 so'm)ni, Avstriyada 1010 yevro (14 902 550 so'm)ni hamda Italiyada 855 yevro (12 461 206 so'm)ni tashkil etadi [5]. E'tiborli tomoni shundaki, Italiya, Ispaniya, Avstriya, Litva kabi rivojlangan mamlakatlarda ota-onaning voyaga yetmagan farzandlariga to'laydigan aliment miqdorlarning mezonlari ikki tomon o'rtasida tuzladigan o'zaro kelishuvlar orqali aniqlanadi. Bunda, albatta, bolaning yoshi, istiqomat qilayotgan davlatning iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda yashash sharoitlari inobatga olinadi. Chunki bola voyaga yetgan sari uning moddiy ehtiyoji ham ortib boraveradi. Germaniyada aliment miqdorlarini aniqlashda sud alohida tuzilgan jadvaldan (masalan, dyusseldorfsk jadvali) foydalangan holda, yordamga muhtoj tarafga aliment miqdorini hisoblaydi. Shuningdek, mazkur jadvalga asosan voyaga yetmagan farzandlar uchun undiriladigan aliment miqdorlari farzandning yoshiga qarab belgilanadi, ya'ni 5 yoshgacha, 6 yoshdan 11 yoshgacha, 12 yoshdan 17 yoshgacha va 18 yosh [6].

Fransiyada ota-onaning voyaga yetmagan farzandlariga to'laydigan aliment miqdorlarini aniqlashda ikkala tomonning daromadi hamda majburiy chiqimlari, nikoh bekor bo'lgandan so'ng oilaviy ahvoli va yangi turmush o'rtog'ining daromadi, bolalarning soni, ularning yoshi, salomatligi, shuningdek o'qish joylari inobatga

olinadi. Onalik va bolalik davlat tomonidan samarali tazda muhofaza qilinishining asosiy mezonlaridan biri aliment to'lovlarining vaqtida undirilishi hisoblanadi. Sud qarorlarining o'z vaqtida ijro etilishi ularning barqarorligi ta'minlanadi. Bugungi kunda aliment undirish to'g'risidagi sud qarorlarining samarali ijrosini ta'minlay olgan davlatlar qatorida Angliya, Germaniya, Avstriya, Fransiya, Shveysariya davlatlarini keltirishimiz mumkin. Belorussiya, Isroil, AQSH hamda Kanada davlatlari ham aliment to'lovlarini undirish borasida ijobiy nati-jalarga erishgan.

Isroil va Ukraina aliment undirish borasida yaxshi tajribaga ega. Ushbu davlatlarda agarda aliment to'lovchi shaxs doimiy yoki vaqtinchalik ish joyiga ega bo'lmasa yoxud aliment to'lashdan bo'yin tovlasa, bunda davlat aliment to'lash bo'yicha barcha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi [7]. Isroilda aliment undiruvchi shaxs mamlakatning Milliy sug'urta xizmatiga (Bituax leumi) murojaat qilgan holatda, aliment to'lovchi shaxsdan pul mablag'i undirilishidan qat'iy nazar qo'shimcha moddiy ko'mak olishi mumkin.

Ukrainada agarda aliment to'lovchi shaxs doimiy yoki vaqtinchalik ish joyiga ega bo'lmasa yoxud aliment to'lashdan bo'yin tovlasa, yoinki uning yashash manzili aniq bo'lmasa, davlat tomonidan farzand uchun minimal yashash darajasida belgilangan 30% miqdoridan kam bo'lmagan pul mablag'i to'lanadi.

Bugungi kunda amaliyotda aliment to'lash majburiyatlaridan qochish maqsadida doimiy ish joyi yoki tadbirkorlik bilan shug'ullangan holda yaxshi daromadga ega bo'lsa-da, o'z majburiyatlarini bajarmaslik uchun tadbirkorligini yaqinlarining nomiga rasmiylashtirib qo'yishmoqda. Ushbu holatda Belorussiya tajribasini qo'llagan holatda aliment to'lovchi vaqtincha yoki doimiy ish joyiga ega bo'lmasa, davlat ijrochisi sudga qarzdorni ishga joylab qo'yish bo'yicha taqdimnoma kiritish mexanizmni joriy etish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. Vorislik va oila huquqi: darslik / Jaxongir Inomovich Yuldashev. – T.:TDYU nashriyoti,2024.
3. Семейный кодекс Республики Молдова от 26 октября 2000 года №1316-XIV
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.04.2025-y., 03/25/1053/0317-son
5. Ayollar va bolalar mulkiy manfaatlarini aliment munosabatlari orqali ta'minlash masalalari:// Mualliflar jamoasi// Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019
6. Право ребенка на алименты в странах континентальной правовой системы (сравнительно правовой анализ). О.В. Убалехт// Вестник ТвГУ. Серия «Право», 2011. Выпуск 27. 120-129-стр
7. Анализ зарубежного опыта в сфере взыскания алиментных платежей. Е.Н. Михайлова, И.В. Михайлов// Ученые записки Орловского государственного университета. №5 (55), 2013 г.